



PEDAGOGIK **AKMEOLOGIYA**

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

1(3)

2023





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGİK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№1(3) 2023

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Lochin ZARIPOV. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida kredit-modulli o'qitishning ahamiyati.....	6
Aziza QODIROVA. Ta'lim jarayonida termiziy fikrlaridan foydalanishning ilmiy-nazariy masalalari ...	11
To'lqin RASULOV, Tabassum SALEEM, Umida UMAROVA. Didactic approach and innovative methods in distance learning	16
Dilnoza NOSIROVA. Talabalar ma'naviy tafakkurini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish	20
Xudaykulov Rustam Zakirovich. Bo'lajak muhandislarning "Avtotransport vositalarining diagnostikasi" fani asosida kasbiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	24
Ulug'bek ESHQUVVATOV. Talabalarni muhandislik kasbiga yo'naltirishning dolzarbligi.....	29
У.И. МУРТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	32
Dilfuza O'RMONOVA. Takrorlash va mustahkamlash darslari jarayoniga pedagogik maqsadlar taksonomiyasini tatbiq etish	37
Nargiza DILOVA. Sharq mutafakkirlari merosi vositasida bo'lajak o'qituvchilarni shaxslararo munosabatlarga tayyorlash - pedagogik muammo sifatida	45
Ulug'bek MAMUROV. Aksiologik yondashuv asosida talaba – yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish	49
Laylo OCHILOVA, Lobar RAJABOVA. Steam usuli - ta'lim jarayonida innovatsion texnologiya sifatida	54
Nohida DJUXONOVA. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari (o'zbek-qirg'iz oilalari misolida).....	58
Nargiza DILOVA. Shaxslararo munosabat va uning mohiyati.....	63
Aziza QODIROVA. Imom at-Termiziy shaxsining psixologik-pedagogik va fikrlarining qiyosiy-analitik jihatlarini	68
Nodir RO'ZIYEV. Ekstremal vaziyatlarda o'spirinlar himoya mexanizmining psixologik tahlili.....	71
G.E.ARTIKOVA. 9-10-sinfda "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" fanini pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib o'qitishning ilmiy-metodik asoslari.....	74
Nozira MUSINOVA. Oila tarbiyasida milliy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatlari.....	79
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	82
Rustambek QO'LDOSHEV. Scientific theoretical basis of construction of elementary school textbooks	82
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish metodikasi.....	86
Asror KASIMOV. Xalqaro tajribalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish	89
Shakarjon QO'CHQOROVA. Darsliklar bilan ishlash o'quvchilar faolligini oshirish vositasi sifatida...	91
Feruza SHARIPOVA. Grammatik tushunchalarni shakllantirishda ta'limiy o'yinlardan foydalanish.....	95
Sabohat SUBHONOVA. 1-sinf chapaqay o'quvchilar bilan ishlash va yozuvga o'rgatish.....	98
O'g'iloy MUSTAFOYEVA. Sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish usullari - samarali o'qitishning turi sifatida	101
Habiba JUMAYEVA. Psychological characteristics of development of creative abilities of primary class students.....	105
Dilnoza KARIMOVA. Birinchi sinf o'quvchilarining chiroyli yozish ko'nikmasini shakllantirish usullari	109
Dilfuza DJO'RAYEVA, Nasiba NASIMOVA. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning ta'lim-tarbiyasida pedagog xodimlarning o'rni.....	112
Sitora NIYAZOVA. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda milliy harakatli o'yinlardan foydalanish metodikasi	115
Mavjuda NIGMATOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kompyuterli ta'limiy o'yinlar texnologiyasi	119
Flora NE'MATOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish samaradorligi.....	125

Dilfuza DJO'RAYEVA

Navoiy viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Nasiba NASIMOVA

Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING TA'LIM-TARBIYASIDA PEDAGOG XODIMLARining O'RNI.

Maqolada tarbiyalanuvchilarning ta'lim-tarbiya olishida pedagog xodimlarning o'rni va maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan ishlar bayon etilgan. Shuning bilan bir qatorda pedagog xodimlarga ish faoliyatiga doir bir qancha tavsiyalar berilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotining tarbiyalanuvchilariga ta'lim-tarbiya berish usullari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagog, mahorat, maktabgacha ta'lim.

V статье рассматривается роль педагогов в воспитании детей и работа, проводимая в организации дошкольного образования. При этом профессорско-преподавательскому составу был дан ряд рекомендаций по трудовой деятельности. Также освещены методы обеспечения образования воспитанников дошкольной образовательной организации.

Ключевые слова: образование, воспитание, педагог, навыки, дошкольное образование.

The article describes the role of teachers in the upbringing of children and the work carried out in the organization of preschool education. At the same time, the teaching staff was given a number of recommendations on labor activity. The methods of ensuring the education of pupils of a preschool educational organization are also highlighted.

Keywords: education, upbringing, teacher, skills, preschool education.

Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan, uning maktabgacha ta'lim bosqichiga e'tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha yoshdagi ta'lim muassasalariga jalb etish va bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish mamalakatimiz ilmiy texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlar yo'nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi mumkin. Zero, ta'kidlab o'tganimizdek, uzluksiz ta'lim bosqichlarining samarali ishlashi ma'lum darajasida maktabgacha ta'lim sifati bog'liq bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo'ladi. Buncha to'g'ri mazmun va yo'nalish berish pedagogika fani, ta'lim amaliyotining dolzarb muammosidir

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Bu uchun pedagog xodimlarning o'rni kattadir. 6-7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha ta'lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Shuni inobatga olgan holda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-

tarbiyaga juda kata e'tibor qaratilmoqda. Barcha pedagog xodimlarning pedagogik mahoratini oshirish borasida bir qancha samarali ishlar olib borilmoqda. Har bir tarbiyalanuvchi bilan individual ishlashga shart-sharoitlar yaratilgan. Bu shart-sharoitlardan oqilona foydalanib pedagog xodimlar bola bilan ishlashda yangi texnologiyalar va yangicha usullardan foydalanish yo'llari ochib berilmoqda. Tarbiyalanuvchilarning ta'lim-tarbiyasida pedagog xodimlarning ahamiyati juda katta. Chunki bola ota-onasi bag'ridan ilk mustaqil hayotga qadam qo'yishni maktabgacha ta'lim tashkilotidan boshlanadi.

Tarbiya - ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun, avvalo tarbiyalanishi zarur. Abu Lays Samarqandiy «Bo'stonul-orifin» asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab: «Ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi», - degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu g'oya alohida o'rin tutadi. «Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil», - deydi alloma. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga

yo' naltirilgan hamkorlik jarayonidir.

Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatishi lozim. Bola shakllanishi va rivojlanishida qiziquvchanlik o'ziga xos xususiyatdir. U bolaning tevarak-atrofdagi voqea-hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab, his qilib, diqqat bilan kuzatishida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni mustaqil javob qidirishga yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi. Bolalarni o'z navbatida tarbiyalab boradi. Bolalar ayniqsa 4-5 yosh ya'ni o'rta guruh yoshida ko'p savol beradigan va ko'p narsalarga qiziqadigan bo'ladi. Bu davrda albatta tarbiyachidan yuksak mahorat va sabr talab qilinadi. Har bir savollariga to'liq va erinmasdan javob berish bolani har tomonlama yuksalishiga shu jumladan o'z fikrini mustaqil va erkin bayon qilishiga yordam beradi. Buni inobatga olgan pedagog xodimlar bolalar bilan ishni to'g'ri tashkil qila oladi.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi:

1. "Tarbiyaning zamoni".
2. "Badan tarbiyasi".
3. "Fikr tarbiyasi".
4. "Axloq tarbiyasi" haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi.

Tarbiyaning har bir bo'limida tarbiyalanuvchining yosh xususiyatlari inobatga olinadi va asta-sekinlik bilan bolaning ongiga singdirib boriladi. Mashg'ulotlarda ta'lim berish bolalardan aqliy va jismoniy zo'r berishni talab etadi, ya'ni u bolani aktiv faoliyati bilan bog'liq bo'lib bola ma'lum natijaga erishish uchun intiladi,

bu esa boladan uzoq davomli ixtiyoriy diqqatni talab etadi. Shuning uchun mashg'ulotga tayyorlanishda bolalar yoshini, imkoniyatini e'tiborga olish zarur: mashg'ulotning vaqtini, kun tartibidagi o'rni dasturning har xil bo'limlarini to'g'ri almashtirib turishni oldindan o'ylab, aniq belgilab olish zarur. Pedagog xodimning mahorati albatta birinchi o'rindadir. Bolajonlar bilan bola tilida suhbatlashish va har jabhada bolani tinglash zarurdir. Buning uchun yuqori darajadagi bilim va malaka talab qilinadi. Bolani tinglash bolaning erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va tafakkurini kengaytiradi. Badan tabiyasini ham bolaga albatta maktabgacha ta'lim tashkilotida o'rgatilishi zarur va bunga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlarini izchil davom ettirish maqsad qilib olindi. Shuni inobatga olib tarbiyalanuvchilarning ta'lim-tarbiyasiga, sog'ligiga ma'suliyat bilan yodashish kerak. Har bir ota-ona bolasini kun davomida maktabgacha ta'lim tashkilotiga ishonib topshirar ekan hamma pedagog xodimlar lavozim yo'riqnomasiga keltirilgan barcha talablarni bajarib har bir bolaning ta'lim-tarbiyasiga, sog'ligiga javobgar shaxs sifatida ma'suliyat bilan ishni tashkil qilishi kerak.

Maktabgacha ta'lim o'zining shakl va usullaridan qat'iy nazar quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

- bolalarning jismoniy va psixik sog'ligini mustahkamlash;
- bolalarni milliy, umuminsoniy, qadimiy va madaniy qadriyatlarga jalb etish;
- bolaning aqliy, intellektual salohiyatini rivojlantirish;
- milliy an'analar va udumlar asosida yuksak ahloqiy va ma'naviy sifatlarni shakllantirish;
- bolalarni tizimli va maqsadli ravishda maktabda ta'lim olishga tayyorlash, ularning individual xususiyatlari va iqtidorini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining pedagog xodimlari kun davomida bola bilan ishlashda shu vazifalarni ilgari surib yuqori bilim va malakaga ega bo'lishi kerak.

Adabiyotlar

1. Мирзаева Дилфуза Шавкатовна, Насиба Курбон Қизи Насимова, and Наргиза Супхоновна Ҳақимова. "Арт-педагогика для дошкольников." Scientific progress 2.7 (2021): 1201-1205.

114

2. Methods of Musical Education and Upbringing of Preschool Children
Nasimova Nasiba Qurbon qizi. European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume
2 | Issue 2 | ISSN: 2795-8612

3. Use of Innovative Methods in Speeching Classes in Preschool Educational
Organizations Nasimova Nasiba Qurbon qizi, International Journal of Culture and Modernity
ISSN 2697-2131, Volume 11 <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm>